O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
<b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>	



Buxgalteriya hisobining samadorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar .....	987
<b>Sattorov Mirjahon</b>	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории .....	991
<b>Дебердиев Анвар</b>	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlari auditini rejalashtirish masalalari.....	995
<b>Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi</b>	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций .....	1000
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович</b>	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
<b>Raxmonov Siyovush Turob o'g'li</b>	



# TURISTIK MAHSULOTNI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLAR HAYOTI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

**Raxmonov Siyovush Turob o'g'li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Samarqand kampusi assistenti  
orcid.org/0009-0002-4832-7371  
[rakhmonov.siyovush@bk.ru](mailto:rakhmonov.siyovush@bk.ru)



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada erkin turistik zonalarni tashkil etish vazifalari va ularning faoliyat yo'nalishlari yoritilgan. Unda turistlar xavfsizligini ta'minlash tizimi va choralari, turistik marshrutlarni rivojlantirish, shuningdek, turistlar faoliyatiga tahdid soluvchi omillar bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bu esa turistlar uchun xavfsiz va maroqli dam olish imkonini yaratadi hamda turistik oqimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** turistlar xavfsizligi, statistik omillar, dinamik omillar, marshrut, ekskursiya, sayohat, yo'l.

**Abstract:** This article presents information about the objectives and functions of organizing free tourist zones. It provides recommendations on the system and measures to ensure tourist safety, the development of tourist routes, as well as the factors threatening tourist activity. These measures aim to ensure a safe and enjoyable experience for tourists and positively influence the tourist flow.

**Key words:** tourist safety, statistical factors, dynamic factors, route, excursion, travel, path.

**Аннотация:** В статье представлена информация о целях и направлениях деятельности по организации свободных туристических зон. Даны рекомендации по системе и мерам обеспечения туристической безопасности, развитию туристических маршрутов, а также по факторам, представляющим угрозу туристической активности. Эти меры способствуют обеспечению безопасного и комфортного отдыха туристов и оказывают положительное влияние на туристический поток.

**Ключевые слова:** туристическая безопасность, статистические факторы, динамические факторы, маршрут, экскурсия, путешествие, тропа.

## KIRISH

Bugungi kunda turistik xizmatlar sohasida dunyoning ayrim mamlakatlari va mintaqalariga sayyohlarni jalb qilish uchun yangi hududlarni shakllantirish, rivojlantirish va targ'ib qilishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Turistlar uchun jozibador bo'lgan bunday hududlar "turistik destinatsiya" deb nomlanadi. Buning natijasida tabiiy ravishda destinatsiyaning bir qismi "turistik zona" shakllanadi. Turistik zona sayyohlar orasida eng ko'p talab qilinadigan yo'nalishning ma'lum bir qismi bo'lib, u milliy va jahon turistik bozorlariga olib boriladigan asosiy diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga oladi. [4]

Jahon sayyohlik tashkiloti tasdiqlaganidek, turizmning barqaror rivojlanishi manfaatdor tomonlarning yaxshi konturlangan siyosiy muhitda ishtirok etishini talab qiladi. Barqaror turizmni rivojlantirish uzoq muddatli va uzluksiz jarayon bo'lib, turizmning belgilangan joyga ta'sirini kuzatish va bu yo'lda tuzatish choralari ko'rishni talab qiladi. Turistlar ham rivojlanishning muhim qismidir, shuning uchun mazmunli xabardorlik bilan bir qatorda mijozlarning yuqori qoniqishi ham zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistlar xavfsizligini ta'minlash masalasi so'nggi yillarda barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda turist xavfsizligi faqat jismoniy himoya bilan emas, balki ma'lumot bilan ta'minlash, sanitariya-epidemiologik muhofaza va huquqiy himoya vositalari bilan ham chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi.



P. Timmarman (2017) o'z tadqiqotlarida turist xavfsizligini kompleks yondashuv asosida baholaydi: xavfsizlik faqat favqulodda holatlardan himoyalanih emas, balki turistning o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarning mavjudligini anglatadi. Muallif xavfsizlikning yuqori darajasi turistik oqimga bevosita ta'sir qilishi va hududning jozibadorligini oshirishini qayd etadi.

Xalqaro ISO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ISO 31030:2021 standarti sayohatlar xavfsizligini boshqarish bo'yicha global yondashuvlarni taklif etadi. Unda xavflarni baholash, marshrutlarni rejalashtirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va sayyohlar bilan ishlovchi xodimlar uchun maxsus treninglar muhim omillar sifatida belgilanadi.

Mahalliy tadqiqotchi A. Yusupov (2021) O'zbekistonda turistik marshrutlar xavfsizligini sertifikatlash zarurligini ta'kidlaydi. U turistik obyektlarda xavfsizlik monitoring tizimlarini joriy etish, mobil ilovalar orqali turistlarga xavfsizlik bo'yicha tezkor ma'lumot yetkazish hamda ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirishni tavsiya qiladi.

Shuningdek, Sh. Tursunov (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sayohat xavfsizligi turistlar tomonidan hudud haqidagi ijobiy yoki salbiy fikrlarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan. Marshrut to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi, sanitariya sharoitlari va gidlarning kasbiy saviyasi turistlarning umumiy qoniqish darajasini belgilaydi.

Xorijiy manbalarda esa sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) asosida xavflarni prognoz qilish, turistik oqimni tahlil qilish va real vaqt rejimida xavfli vaziyatlarga javob berish tizimlari muvaffaqiyatli qo'llanilayotganiga urg'u beriladi (Wang va boshq., 2022).

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, xavfsiz turizmni ta'minlashda huquqiy, texnologik, infratuzilmaviy va axborot-kommunikatsion yondashuvlar uyg'unlashgan holda qo'llanilishi zarur. Bu esa turistlarning ishonchini oshiradi, milliy turizm brendi imidjini mustahkamlaydi va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turistlar xavfsizligini ta'minlashga oid dolzarb muammolarni aniqlash, mavjud xavfsizlik strategiyalarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqotda nazariy va amaliy metodlardan kompleks foydalanildi.

Nazariy asos sifatida xalqaro va milliy adabiyotlar, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, hamda ISO 31030:2021 kabi global xavfsizlik standartlari tahlil qilindi. Shuningdek, xavfsizlik, risklarni boshqarish va turizm infratuzilmasiga oid mavjud konsepsiyalar o'rganildi.

Respublikaning turizm salohiyati yuqori bo'lgan fuqarolar yig'inlariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomini berish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi. Mamlakatimizda birinchi bo'lib Samarqand tumani Konigil qishlog'ida 52 ta hunarmandchilik va dam olish maskanlari mavjud bo'lgan "turizm qishlog'i" tashkil etildi va 200 nafardan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta'minlandi. [5]

Turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Barchaga ma'lumki, turizm samaradorlikni oshirish va rivojlanishi uchun milliy va xalqaro sayohatchilar va dam oluvchilarning hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkning xavfsizligini, shu bilan birga turistik faoliyat ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash va ularni himoya qilish zarur. Xo'sh, bunga qanday erishish mumkin? Jahon turistik tashkiloti ekspertlari buning quyidagi yo'llarini taklif etadilar:

Sayohatchilar va dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash qonun-qoidalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

Jamoatchilikka axborot berish;

Shu jumladan favqulodda vaziyatlarda turistlarning xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning institutsiyaviy negizini vujudga keltirish;

ikki tomonlama, mintaqaviy, submintaqaviy, mintaqalararo miqyosda va jahon miqyosida xalqaro hamkorlik.

Ayni vaqtda, turistlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek turistik ahamiyatga molik joylarda xizmat ko'rsatish sifatining yuqori darajada bo'lishiga erishishni boshqa ijtimoiy yoki milliy manfaatlardan, xususan, qabul qiluvchi mamlakat hamda butun atrof muhit manfaatlardan ajratish mumkin emas.

O'z-o'zidan ayonki, turizm hamda turistlarni himoya qilish sohasida xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish va amalga joriy etishda tashrif buyuruvchilar bilan qabul qiluvchilar manfaatlarining mushtarakligini ta'minlash zarur.

Turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Barchaga ma'lumki, turizm samaradorlikni oshirish va rivojlanishi uchun milliy va xalqaro sayohatchilar va dam oluvchilarning hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkning xavfsizligini, shu bilan birga turistik faoliyat ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash va ularni himoya qilish zarur. Xo'sh, bunga qanday erishish mumkin? Jahon turistik tashkiloti ekspertlari buning quyidagi yo'llarini taklif etadilar:

I - guruh - «Statistik omillar» - bu omillar vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, saqlab turadi. Bu guruhga tabiiy iqlim omillari, georasm omillar, madaniy - tarixiy omillar kiradi.



II - guruh - «Dinamik omillar» - Bu guruhga quyidagi omillar kiritilgan.

Siyosiy omillar

Ijtimoiy - demorasm omillar

Iqtisodiy - moliyaviy omillar

Moddiy texnik omillar

Savol kelib chiqadi: Turizm rivojlanishidagi qayd qilingan II guruh omillarning mavzuga nima aloqadorligi bor?

Turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonda turizmni tashkil qilish va rivojlantirish sohasidagi dastlabki qonunlarda alohida modda bilan belgilangan. Ana shunday dastlabki qonun - O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonuni hisoblanadi. Bu qonun 20-avgust 1999-yilda qabul qilingan bo'lib qonundagi 18, 19, 20 - moddalar turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashdagi chora - tadbirlar tizimini yaratishga asos bo'ladi.

Marshrutdagi transport xizmatlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash. Turizm marshrutdagi eng ma'suliyatli xizmatlar bu - transport vositalarining xizmatlari hisoblanadi. Turistik marshrutga transport xillari marshrut yo'llarini, ekskursiyalarni, yo'lning holati (avtomagistral, tosh yo'l, shosse, mahalliy yo'l va h.k.) bo'yicha tanlanadi.

Shaharlararo o'tkaziladigan turistik marshrutlarda transport xillarini tanlash muammo emas. Bunday marshrutda transport turlari turistlarning soniga qarab (yengil avtomobil, mikroavtobus, avtobus va boshqalar) tanlanadi. Turmarshrutga olingan avtotransport turi albatta DAN tashkilotidan texnik ko'rikdan o'tgan bo'lishi, tozaligi, sozligi, shuningdek, haydovchi haqida tavsifnoma, uning hujjatlari, ish tajribasi bilan tanishiladi va yo'ldagi tezlik va to'xtash joylari, harakatlanish faqat turistik marshrut rahbari ruxsati bilan amalga oshirilishi haqida kelishilib olinadi.

Turistik marshrut davomida turistlarning transportni o'zboshimchalik bilan to'xtatishlariga ruxsat berilmaydi. Qayd qilganimizdek, transportni yo'lda to'xtatish turmarshrut rahbari ruxsati bilan amalga oshiriladi. Marshrut davomida turistlarning transport ichida, salonida ozodalikni, tartib - intizomni saqlash, transport derazalaridan har xil narsalarni tashlamaslik, qo'lni, boshni, gavdani derazalardan chiqarmaslik va h.k.lar bo'yicha marshrut rahbari o'ta xushmuomalalik bilan turistlarga murojaat qilishi ham zaruriy axborotlardan hisoblanadi.

Shuningdek, marshrut davomida transport salonida gaz va boshqa yoqimsiz hidlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikda ham haydovchi marshrut boshlanishidan oldin ogohlantiriladi. Turistik marshrutga transportni ajratgan tashkilotning adresi, telefonlari, rahbarlari haqidagi ma'lumotlar marshrut rahbarida bo'lishi shart.

Turistik marshrutdagi joylashtirish xizmatlarida hayot xavfsizligini ta'minlash. Marshrut shaharlarda, tumanlar markazlaridagi turistik resurslarga uyushtirilsa turistlarni joylashtirish muammo emas chunki, ular marshrutgacha mehmonxonalarda joylashgan bo'lishadi.

Marshrut shaharlardan uzoq bo'lganda yoki marshrut rejasi bo'yicha tunashga to'g'ri kelganida xavfsizlik tadbirlari ko'riladi. Ayniqsa, mahalliy aholi uylarida bir kunlik tunash sharoitlari turistlarga to'liq tanishtirilishi, tushuntirilishi lozim.

Agar turistlar turistik lager binolarida joylashtirilganda xavfsizlik holatlarini batafsil tushuntirishga hojat yo'q. Chunki, yangi joylashtirilgan turistlar ulardan oldin kelib joylashgan turistlar bilan birga yashayverishadi. Agar turistlar palatkalarda tunaydigan bo'lsa, albatda yig'ma karovatlar, yig'ma stol-stullar, toza choyshablar tayyorlanishi lozim bo'ladi.

Dala sharoitida qurilgan palatkali tunash sharoitlarida palatkalar ichi, atrof maydon to'liq turistlar yetib kelguncha tozalanib, tartibga keltirilishi zarur. Palatkalarni joylashtirishda iloji boricha ochiq sayhonlik, yoki o'tloqzorlar tanlanishi maqsadga muvofiq. Qalin o'suvchi o'tzor, pichanzorlarda hashorotlar ko'p bo'lganligidan bunday joylarda ilon, chayon, qoraqurt, falanga, ari kabi chaquvchi hashorotlar turistlarning hayotga xavf solishi mumkin.

Turistik marshrutda yoz oylari dalada tunashni hohlovchi turistlarga havoda-uxlash uchun maxsus ko'rpachalar berilishi lozim. Bu usulda tunash ekspeditsiya usuli ham deyiladi. Bunday sharoitda maxsus ko'rpachalarda mashinalar bortida, balandliklarda bemalol tunash mumkin.

Marshrutdagi ovqatlantirish xizmatlarida hayot xavfsizligini ta'minlash. Marshrut shahar ichida yoki bir-biriga yaqin tumanlarda, shaharlardan o'tganidan turistlarni ovqatlantirish muammo emas. Turistlarni turistik marshrut davomida ovqatlantirish xillari «Turistik marshrutdagi xizmatlar» mavzusida keltirildi.

Marshrutdagi ovqatlantirish xizmatlarida turist hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar, holatlar aksariyat hollarda ekologik marshrutlarda yoki shaharlar tashqarisidagi marshrutlarda yuz berishi mumkin. Lekin e'tibor berilsa, turistlarni ovqatlantirishda turist ovqatlanadigan barcha mavsumlarda va barcha harakatlanishning georasm makonlarida hayotga xavf soluvchi vaziyatlar yuz berishi mumkin.

Birinchidan, mavsumlarda turistlarni ovqatlantirishda jiddiy ehtiyot choralarini ko'rish talab qilinadi. Mavsumlarda turistlarni ovqatlantirishda dastlab may-iyun oylarida pishib yetiladigan mevalar (qulupnay, gilos, olma, anjir, tut) ni turist dasturxoniga tortishda me'yordan oshirmaslik zarur (hatto turist talab qilganda ham).



Kuzatuvlardan ma'lumki, tropik mintaqalardan, Yevropa davlatlaridan keladigan turistlar bizning vatanimizda pishib yetiladigan mevalarning vitaminligining yuqoriligi (kaloriyaligidan) sababli ko'proq xush ko'rib iste'mol qilishadi. Bunday holatlarda qayd qilingan mamlakatlardan kelgan turistlarda qon bosimi birdaniga ko'tarilib ketishi ko'plab kuzatilgan.

Ikkinchidan, yoz mavsumining baland haroratligidan turistlarni suv bilan ta'minlashda ham ko'ngilsiz hodisalar yuz berishi hollari ham kuzatilgan (suv kranlaridan olib berish, muzlatgichlardan olib berish va h.k.).

Uchinchidan, turistlarni milliy taomlarimiz bilan ovqatlantirishda ham ehtiyotlik choralarini ko'rish lozim bo'ladi (2-3 xil ovqat berish, yog'li ovqatlar berish va h.k.).

To'rtinchidan, turistlar marshrut davomida mahalliy aholi hayotini o'rganishda, qiziqishlarida xalqimizning o'ta mehmondo'stligi tufayli turistlarni uylariga, bir piyola choyga taklif qilishadi. Ana shunday uchrashuvlar ayniqsa, ekologik turizm marshrutlarini o'tkazishda ko'p uchraydi. Bunday uchrashuvlarda ba'zida spirtli ichimliklar, sifatsiz suvlar (buloqlardan, daryolardan, ariqlardan olingan) ham turistlarda oshqozon ichak faoliyatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Turistik marshrut rahbari va ovqatlantirishni bajaruvchilar turistlarni ovqatlantirishda ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi mahalliy manbalarni juda yaxshi bilishlari lozim bo'ladi. Turistlarni ovqatlantirishda oziq-ovqat mahsulotlarining, idish-tovoqlarning va ovqatlanadigan joylarning ekologik jihatlardan toza bo'lishiga jiddiy e'tibor berishlari talab qilinadi.

Ekskursiya xizmatlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash. Turizm marshrutlaridagi ekskursiyalarda turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar transport xizmatlarida, dam olish xizmatlarida, sayrlarda va ovqatlanish xizmatlarida ham yuz berishi mumkin. Chunki, marshrutlardagi ekskursiyalarda ham turistik marshrutlardagi barcha xizmatlar ko'rsatiladi. Ayniqsa ekoturizm marshrutlaridagi (tog'larda, suv havzalarida, daralardagi so'qmoqlarda va h.k.) ekskursiyalarda harakatlanishdagi xavfsizlik oldindan ta'minlanishi zarur.

Turistlarni tog' so'qmoqlarida tabiat bilan tanishtirish ekskursiyalarida ehtiyotlik choralariga, tartib-intizomga rioya qilish kerak. Chunki, bunday sharoitda turistlar surinib, pastliklarga tushib ketishi yoki oldinda ketayotgan turistlarning noto'g'ri harakatlaridan pastda kelayotganlar ustiga toshlar yumalab ketishi hollari yuz berishi mumkin.

Ekskursiyalar o'tkazish davrida (ekoturizm ekskursiyalarida) tabiatning so'lim joylarida dam olish istagi paydo bo'lgan hollarda, turistlarni qisqa muddatli ovqatlantirishda tushonka, kolbasa, brinza yoki oldindan pishirilgan ovqatlarning toza saqlanganligi, sifati tekshirilgandan keyin foydalanishi lozim. Ichimliklar albatda termosda choy, gazlangan suv o'z idishlarida saqlanishi kerak.

Turistik marshrutni o'tkazishda turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashda eng ishonchli vositalar bo'lishi tibbiyot markazlari va ularning bo'limlari bilan doimiy telefon aloqalarning mavjud bo'lishligi marshrut rahbari uchun ma'suliyatli, majburiy vazifa bo'lishligi talab qilinadi. Ikkinchidan, marshrut rahbari marshrutga yaqin bo'lgan va atroflardagi tibbiy yordam ko'rsatish punktlari joylashgan manzillarni juda yaxshi bilishlari kerak. Uchinchidan, marshrut davomida tibbiyot dorilar qutichalari (aptechkalar) bo'lishligi ham marshrut hujjatlarida rasmiylashtirilishi talab qilinadi.

Turistik marshrutlarda turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashdagi birinchi chora-tadbirlar bu- marshrut boshlanishida turistlarga marshrutda tartib-intizomning saqlanishi, xavfli vaziyatlar yuzaga kelishidan ehtiyot bo'lish haqida qisqacha tushuntirish ishlari o'tkazilishi va bu haqda marshrut axborotnomasida alohida qaydlar bo'lishini amalga oshirishdir.

Turistik marshrutlarda turistlarning birortasi bilan ko'ngilsiz, hayotiga xavf soluvchi voqealar yuz berganda tezkor usullarda bunday voqealarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'riladi. Agar bunday voqealarga marshrut tashkilotchilari aybdor bo'lishsa uzr so'rashni turistik tashkilot rahbari bajaradi. Marshrut tugagandan keyin yuz bergan voqea turistik firma jamoasi ishtirokida muhokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilinishi kerak.

Tahlil va natijalar

Turistlarning hayotiga xavf soluvchi omillar, vaziyatlar, ob'ektlar, holatlar haqida so'z yuritganda e'tibor berish lozimki, turist mehmonxonaga kelib joylashgandan keyin o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan marshrutda bo'ladi. U yoki ular (turistlar) xohishi bo'yicha mehmonxona yaqinida joylashgan ob'ektlarga (parklarga, ko'chalarga, binolarga, markazlarga va hako...) qisqa muddatli sayrlarga chiqishi ham marshrut sxemasida bo'ladi va bu yurishlar, tanishishlarda ham turistlarni albatda marshrut rahbari (turoperator boshlab yuradi). Shuning uchun ham turistlarning hayotiga xavf soluvchi holatlar, omillarni marshrut rahbari (turfirma xodimlari) juda yaxshi bilib olishlari zarur bo'ladi.

Turistlarning hayotiga xavf soluvchi omillar quyidagicha ta'riflanadi:

1. Zararli omillar.  
jarohat olish xavfi;  
yong'inda qolib ketish xavfi;  
biologik ta'sir qilish xavfi (atrof - muhit);  
ruhiy-jismoniy yuklama olish;



nurlanish xavfi;  
kimyoviy zararlanish xavfi;  
tutundan va gazdan zaharlanish xavfi;  
turistning tavakkalchasiga harakatlanishidan kelib chiqadigan xavflar.

## 2. Biologik omillar.

mikroorganizmlar (mikroblar)dan zararlanish xavfi (oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi);  
zaharli o'simliklardan zararlanish xavfi;  
zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar, hashorotlar), hashorotlar (chayon, qoraqurt, ari) dan zararlanish xavfi;  
yuqumli kasalliklar tashuvchi yovvoyi va xonaki hayvonlar, parrandalardan har xil kasalliklarni yuqtirish xavfli;

allergiya va boshqa kasalliklarni chaqiruvchi o'simlikzor, o'tloqzor va o'rmonzorlarda ushbu kasalliklarni yuqtirish xavfi;

mevalar, sabzavotlardan zaharlanish xavfi.

## 3. Kutilmagan omillar.

turistlar joylashtirilgan joylarda tabiatning favquloddagi hodisalari (suv toshqini, qor ko'chishi, ob-havoning keskin o'zgarishi va hokazolar)dan kelib chiqadigan xavflar;

turistlar joylashgan joylardagi aholi, jamoatchilikdagi tartib-intizomning bo'shligidan kelib chiqadigan xavflar;

turistlar foydalanayotgan mehmonxona, lager binolarining texnik holati, kanatli sim yo'llar, chang'i yo'llari, avtomagistrallar, so'qmoqlar va boshqa moddiy ob'yektlarning texnik holatidan kelib chiqadigan xavflar.

«Turizm to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasi «Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari»da shunday deyiladi: «Turistik faoliyat sub'yektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- turistlarning safarda xavf-xatardan xoli bo'lishlari uchun shart-sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo'llari, musobaqalar o'tkaziladigan joylarning obodligini ta'minlashlari;

- turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o'rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan yo'l-yo'riq berishlari, shuningdek belgilangan yo'nalishning xususiyati va turistlarning xatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilishlari;

- turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;

- falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko'rsatishlari;

- avtomobil, tog', chang'i, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g'or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart».

Xuddi shu moddada belgilab qo'yilganki, turistik sayohatlarni turistlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turistik faoliyat sub'yektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish maqsadida xizmat ko'rsatishni ko'zlab qidiruv-qutqaruv xizmatlari bilan shartnomalar tuzadilar.

Bundan tashqari, turistlar xavfsizligini saqlashning shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moddiy zararining to'lanishi, shuningdek ma'naviy ziyonning o'rni qoplanishi huquqi (14-modda) singari shakli ham mavjud.

O'zbekiston turistik firmalarining vakillari marshrutlarning xavfsizligini nafaqat narigi taraf qonun hujjatlari, balki o'z milliy qonun hujjatlari normalari nuqtai nazaridan ham tekshirishlari lozim. Chunonchi, Gobi cho'li bo'ylab sayohat chog'ida ichish uchun taklif etiluvchi suv Mo'g'uliston sanitariya talablariga javob bergani holda, O'zbekiston standartlariga javob bermasligi, buning oqibatida o'zbek turistlarining sog'lig'i xavf ostida qolishi mumkin.

Turist xavfsizligini ta'minlash zamonaviy turizm infratuzilmasining ajralmas qismidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sayyohlar uchun xavfsizlik darajasi ularning sayohatga bo'lgan ishonchi, hududga kirish qaroriga ta'siri hamda mahalliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Turist xavfsizligining asosiy omillari:

sayyohlik mintaqasidagi siyosiy barqarorlik;

epidemiologik xavfsizlik va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinishi;

tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda holatlar xavfi.

Xavfsizlikning iqtisodiy ta'siri:

Turistlar xavfsizlikka ishonch bildirgan taqdirda, hududga sayyohlar oqimi ortadi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, xavfsizlik choralari bajarilmasa, bu holat turistik mavsum davomida iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.



Mavjud xavfsizlik strategiyalarini tahlil qilish:

sayyohlik sohasidagi davlat siyosati;

xalqaro standartlarga (masalan, ISO 31030 – sayohat xavfsizligi) mos xavfsizlik choralari joriy etilishi; turistik obyektlar va transport infratuzilmasida xavfsizlik monitoringi tizimlarining yo'lga qo'yilishi.

Xavfsizlik choralarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar:

hududlar bo'yicha xavflarni oldindan baholash va risklarni boshqarish rejalari ishlab chiqish;

sayyohlik obyektlarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan texnologik yechimlarni joriy etish;

sayyohlar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun xavfsizlik bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

Sayyohlar xavfsizligini ta'minlashning innovatsion yondashuvlari:

sun'iy intellekt asosida xavfsizlik monitoringi tizimlarini joriy etish;

mobil ilovalar orqali sayyohlarga xavfsizlik bo'yicha ma'lumotlar yetkazib berish;

favqulodda vaziyatlarda sayyohlar bilan tezkor aloqa o'rnatilishini ta'minlovchi tizimlarni ishlab chiqish.

Amaliy natijalar:

Xavfsizlik choralari turistik mahsulot sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa sayyohlar oqimini ko'paytiradi, turizm sektorida daromadlarning oshishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, hududning xalqaro miqyosdagi obro'si va raqobatbardoshligi ham ortadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda turizm sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda xizmat ko'rsatish sohasi yetakchi rol o'ynaydi. Har bir sayyoh, eng avvalo, xavfsizlik kafolatlangan hududlargagina tashrif buyuradi. Shu sababli, turistlar xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Xizmat ko'rsatish sifati, xususan, turistik marshrutlarning qulayligi va tashkil etilishi sayyohlarning mazkur hudud haqidagi fikr va taassurotlarini shakllantiradi. Sayyohning tashrifi davomida o'zini qulay va ishonchli his qilishi uchun oziq-ovqat xavfsizligi ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada zaruriy ko'rsatmalar va ma'lumotlar bilan ta'minlash muhim sanaladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda turistik marshrutlar bosqichma-bosqich sertifikatlanmoqda. Shu sababli, turistlar taklif etilayotgan marshrutlarning xavfsizlik darajasi va infratuzilma holatidan xabardor bo'lishlari zarur. Shu bilan birga, xorijiy turfirmalar tomonidan taklif etilayotgan, shuningdek, O'zbekistonda ishlab chiqilayotgan turistik mahsulotlarni sifat va xavfsizlik nuqtai nazaridan baholash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. G'ulomxasanov, E., Ruziyev, B., & Akramov, S. (2022). TURIZMDA DESTINATSIYA. Scientific progress, 3(1), 143-150.
3. MAJMA, S. B. A. S. S. (2020). Comparative analysis of alisher navai's majalis un-nafais and sadiqi beg afshor sadiqi's majma'al-khavas. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(08).
4. Ugli, R. S. T. (2023). XORIJIY MAMLAKATLARDA TURISTIK ZONALARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. Journal of marketing, business and management, 2(1), 219-225.
5. Raxmonov, S., & Ochilova, M. (2024). Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish orqali turistik zonalarini takomillashtirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
6. www.google.Academy



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---